

60210100- Texnogen san'at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishidagi
"Ijodiy (kasbiy) imtixonlar dasturi va baholash mezonlari"
N.Sodiqova va Sh.Amanmuradovlarning tomonidan tuzilgan dasturiga

TAQRIZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida yangi qabul qilinayotgan 60210100- Texnogen san'at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq tuzilgan.

60210100- Texnogen san'at: kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi bakalavrlilik ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlarning ijodiy (kasbiy) imtihoni dasturi hujjatlarni qabul qilish va kirish imtihonlari "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalariga" muvofiq o'tkaziladi.

Abituriyentlarni dastur talabalarining televideniye, radio, kino va ommaviy tadbirlar ovoz rejissurasi ixtisosligi bo'yicha keng miqyosda mukammal bilimlarni va ovoz rejissorligi mahorati ko'nikmalarini o'rganishga asoslanadi, zamonaviy ovoz yozish texnik anjomlaridan umumli foydalangan holda, hamda raqamli kompyuter imkoniyatlarini qo'llash orqali ovoz yozuvi malakalarini chuqur egallashi ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi, ovoz yozuvining dastlabki rivojlanishi tarixi, tovushning hususiyatlari, akustik muhit, tovush trakti, ovoz yozuvining mexanik, optik, magnit va raqamli turlarining o'ziga hos hususiyatlari bilan birga tovushni qayta ishlash, TV va radio eflarlarda ishlash va zamonaviy raqamli ovoz uzatish tizimlarini nazariy jihatdan dasturini tuzishda mualliflarning asosiy maqsadi bo'lgan.

60210100- Texnogen san'at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishi o'z ichida ovoz rejissori, ovoz operatorining zamonaviy texnik apparaturalari va qurilmalar, uskunalar hamda zamonaviy maxsus ovoz yozish kompyuter texnologiyalarining samarali vositalari, animatsion ovoz yozish grafik dasturlar bilan ishlash yo'llari majmuini qamrab oladi.

N.Sodiqova va Sh.Amanmuradovlarning tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu "Ijodiy (kasbiy) imtixonlar dasturi va baholash mezonlari" dasturini mutaxassis sifatida barcha talablarga mos keladi deb hisoblayman va uni tasdiqlash uchun tavsiya qilaman.

O'zMETRK "Teleradiomarkaz" DUK, TMM
Sh. Adilov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA TURUZM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

«Tasdiqlayman»

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektor

V.V.B. O'zbekiston
2023-yil 10.06



IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

60210100- Texnogen san'at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishi uchun
(sirtqi)

1. Ovoz rejissorligi mahorati fanidan
2. Akustika asoslari fanidan

Toshkent-2023

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv- uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023 yil ___ iyundagi ___-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

N.Sodiqova

– “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasi o'qituvchisi

Sh.Amanmuradov

– “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

A.A. Mirzayev

– O'DK “Musiqiy ovoz rejissyorligi va informatika” kafedrasi dotsenti

Sh. K. Adilov

– O'zMETRK “Teleradiomarkaz” DUK, ovoz yozish xizmati boshlig'i

Kirish

60210100 – Texnolog san'at: kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi bakalavrluk ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlarning ijodiy (kasbiy) imtihoni dasturi hujjatlarni qabul qilish va kirish imtihonlar “O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalari”ga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlar, har bir ixtisos uchun ta'kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi, har bir Oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidalar ko'rsatiladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga kirayotganlarga, yil mobaynida va imtihonlar oldidan konsultatsiyalar o'tkaziladi. Konsultatsiyalarning maqsadi – qabulning shartlari bilan tanishish, shu oliy o'quv yurtiga kirishni xohlovchilarning qobiliyatini va tayyorgarlik darajasini aniqlanishdir. Konsultatsiyalar mobaynida pedagoglar, abituriyentlarni tanlagan ixtisosiga o'qitish imkoniyatiga qarab, o'z tavsiyalarini berishadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

60210100–Texnolog san'at: kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi bakalavrluk ta'lim yo'nalishda o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlar abituriyentlarning ovoz rejissyorligi ixtisosligining asosiy hisoblangan ovoz rejissyorligi mahorati, akustika asoslari va solfedjio fanlaridan amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tgaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan (fonogramma tahlili) ijodiy suhbat (og'zaki savol-javob) ovoz rejissuraga oid ishlarni bajaradilar.

Ovoz rejissyorligi mahorati fani bo'yicha

Ovoz rejissyorligi mahorati fanidan kirish imtihonida ijodiy suhbat (og'zaki savol-javob) va ijodiy ish topshirishi lozim.

Ovoz rejissyorligi mahorati fani bo'yicha maksimal 93 ballni tashkil etadi.

Ijodiy suhbat (og'zaki savol-javob)

Ijodiy suhbat jarayonida abituriyent og'zaki javob beradi. Savollar ovoz rejissyorligi san'ati, tarixi va hozirgi rivojlanayotganlik bosqichi, o'zbek va chet el ovoz rejissyorlarning hayoti va ijodi, texnik jihozlarning turlari, tavsifi, vazifalari, musiqiy cholg'u asboblarning turlari, xususiyatlari yuzasidan tuzilgan bo'lib, abituriyentlar bilimni aniqlash uchun atroflicha suhbat o'tkaziladi.

Mustaqil ijodiy ish

Mustaqil ijodiy ish jarayonida abituriyent ovoz yozish dasturlar va ovoz yozish jihozlaridan foydalanish bilimlariga ega bo'lish kerak.

Akustika asoslari fani bo'yicha

Akustika asoslari fanidan kirish imtihonida fonogramma tahlili va og'zaki

imtihon (og'zaki savol-javob) topshirishi lozim.

Akustika asoslari fani bo'yicha maksimal 68 ballni tashkil etadi.

Og'zaki imtihon (og'zaki savol-javob)

Og'zaki imtihon jarayoni savol-javob tarzda bo'lib o'tkaziladi. Savollar akustika bo'limlari, turli tovushlarning akustik xususiyatlari, tovushlarning asosiy fizik xususiyatlari, musiqiy cholg'u asboblarning turlari va ularning akustik xususiyatlari yuzasidan tuzilgan bo'lib, abituriyentlar bilimni aniqlash uchun atroflicha suhbat o'tkaziladi.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Ovoz rejissyorligi mahorati fanidan abituriyent tovush xususiyatlari va xossalari; ovoz yozish va chiqarish anjomlarini; zamonaviy kompyuter texnologiyalarini; ovoz yozish va uni qayta ishlash uchun mo'ljallangan kompyuter dasturlarini; mikrofonlar va ularning turlarini; miksher pulplarining turlarini; raqamlashtirish moslamalari va ularning turlarini; analog va raqamli tovushni qayta ishlash vositalarini; tovush kuchaytiruvchi moslamalar va ularning turlarini; aranjirovka qilish usullarini; musiqiy cholg'ular ularning tembrlarini; tovush qabul qilish va chiqarish usullarini; zamonaviy elektr cholg'ularni; akustika xossalari; tovush to'liqlari va ularning tarqalish xususiyatlarini xaqida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Akustika asoslari fanidan akustika bo'limlari, turli tovushlarning akustik hususiyatlari, fizika va elektronika asoslari, umumiy akustika, musiqiy akustika, arxitektura akustikasi va elektro akustika buyicha tushuncha, ovoz yozish studiyalarning tavsiflari va akustik jihozlash, musiqiy cholg'u asboblarning turlari va ularning akustik xususiyatlari umumiy tushunchalarini bilishi kerak va musiqiy qobiliyatini to'g'ri kuytash, eshitish qobiliyatini tekshirish orqali aniqlanadi.

Ijodiy (kasbiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:

Ovoz rejissyorligi mahorati fani boyicha

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Og'zaki savol-javob	12
2.	Abituriyentning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining san'at va madaniyatga oid Farmonlari haqida tushunchasi	10
3.	Mantiqiy mulohazasi, dunyoqarashi (siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy bilimlar darajasi)	12
4.	Musiqiy va vizual xotira	14
5.	Ovoz rejissyorligi kasbi haqidagi tushunchasi	14
6.	Eshitish va xotira qobiliyati	11
7.	Shaxsiy fikr	10
8.	Mustaqil ijodiy ish	10
Jami:		93

Akustika asoslari fani bo'yicha

№	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Fonogrammalarni tahlil qilishi	13
2.	Akustika bo'limlari	10
3.	Turli tovushlarning akustik xususiyatlari	10
4.	Tovushlarning asosiy fizik xususiyatlari	10
5.	Musiqiy cholg'u asboblarning turlari va ularning akustik xususiyatlari	10
6.	Tovush balandligi yoki pastligi	10
Jami:		63

Ijodiy (kasbiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60210100—Texnologiya fanlari: kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi yo'nalishi hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda yakka tartibda yarim akademik soat vaqti davomida ovoz rejissyorligi mahoratida ijodiy ham suhbat imthonini topshiradi. Ijodiy (kasbiy) imthonlar maxsus qurollar bilan jihozlangan auditoriyalarda bo'lib o'tadi.

Fan boyicha "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasidan yuqori malakali professor-o'qituvchilar jalb qilinadi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy ijodiy imtxon natijalari boyicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hayati ga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017.
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.
6. Shilova I.M. Film i ego muzika. M., 1973.
7. Aldoshina I., Pritts R. Muzikalnaya akustika. SPb, 2006.
8. AnnertV., Shieffen F. Texnika zvukousileniy-O'quv qo'llanma. M.: 2003.
9. Kozyurenko Y. Osnovi zvukorejissuri v teatre-O'quv qo'llanma M., 1987.
10. Sekunov N. Y. Obrabotka zvuka na RS: ucheb. posobiye dlya vuzov SPb., 2001.
11. Sevashko A. Zvukorejissura i zapis fonogram. M., 2004.
12. Xamidova M., Yusupova N. Xudojestvennaya kultura, iskusstvo v aspekte teoreticheskogo osmisleniya. O'quv qo'llanma. Toshkent 2017.
13. Jay Rose. Producing Great Sound for Film and Video: Expert Tips from Preproduction to Final Mix - Abingdon, United Kingdom, 2014.
14. Peter Kim. Real World Digital Audio. Peachpit Press. 2005.
15. Amanmuradov Sh., Mirsaidova D. Ovoz rejissyorligi mahorati. O'quv qo'llanma. Toshkent 2018.
16. Byuik P. Jivoy zvuk. M. 1996.
17. Gushin V.N., Nasirov M.Z. Oborudovaniye studiy i sistemi zvukozapisi. O'quv qo'llanma. Toshkent: 2004.
18. Dvorko N., Dinov V., Shugal S., Kubitskiy Y., Osnovi zvukorejissuri. O'quv qo'llanma. SPb., 2006.
19. Kandrashin P. Tipichniye oshibki zvukorejissyorov pri zapisi i svedenii fonogramm - O'quv qo'llanma. – M., 1999.
20. Meyerzon B. Akusticheskiye osnovi zvukorejissuri - O'quv qo'llanma. M. 2004.
21. Mirzayev A. Ovoz kuchaytirish apparaturasi va xavfsizlik texnikasi. Toshkent, 2013.
22. Xmirov A. Ovoz rejissyorligi mahorati. O'quv qo'llanma. Toshkent 2018

60210100- Texnogen san'at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishidagi

**“Ijodiy (kasbiy) imtixonlar dasturi va baholash mezonlari”
N.Sodiqova va Sh.Amanmuradovlarning tomonidan tuzilgan dasturiga**

TAQRIZ

Uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlariga muvofiq Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'iga asosan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida yangi qabul qilinayotgan 60210100-Texnogen san'at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi) ta'lim ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan. Abituriyentlarni dastur talabalarining televideniye, radio, kino va ommaviy tadbirlar ovoz rejissurasi ixtisosligi bo'yicha keng miqyosda mukammal bilimlarni va ovoz rejissertligi mahorati ko'nikmalarini o'rganishga asoslanadi, zamonaviy ovoz yozish texnik anjomlaridan unimli foydalangan holda, hamda raqamli kompyuter imkoniyatlarini qo'llash orqali ovoz yozuvi malakalarini chuqur egallash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi, ovoz yozuvining dastlabki rivojlanishi tarixi, tovushning hususiyatlari, akustik muhit, tovush trakti, ovoz yozuvining mexanik, optik, magnit va raqamli turlarining o'ziga hos hususiyatlari bilan birga tovushni qayta ishlash, TV va radio efitrlarda ishlash va zamonaviy raqamli ovoz uzatish tizimlarini nazariy jihatdan dasturini tuzishda mualliflarning asosiy maqsadi bo'lgan.

Fannini vazifasi tovush turlari va uning hususiyatlari, tovush akustikasi va akustik muhit hamda tovush traktini o'rgatish, turli ovoz yozuv tizimlari va vositalari, zamonaviy kompyuter tizimlari va dasturlari, ovoz kuchaytirish tizimlari va ularning qo'llanishi, zamonaviy translyatsiya tizimlari va ularning ish prinsiplari bilan tanishtirishdir.

60210100-Texnogen san'at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishi o'z ichida ovoz rejissyori, ovoz operatorining zamonaviy texnik apparaturalari va qurtimlar, uskunalar hamda zamonaviy maxsus ovoz yozish kompyuter texnologiyalarining samarali vositalari, animatsion ovoz yozish grafik dasturlar bilan ishlash yo'llari majmumi qamrab oladi.

N.Sodiqova va Sh.Amanmuradovlarning tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu “Ijodiy (kasbiy) imtixonlar dasturi va baholash mezonlari” dasturini mutaxassis sifatida barcha talabarga mos keladi deb hisoblayman va uni tasdiqlash uchun tavsiya qilaman.

**“Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasi,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
Yoshlarmurabbiysi, s.f.n, dotsent
A.Ubaydullaev**

